

QISSALARDA ZAMON VA MAKON TALQINI (XRONOTOP) (Yozuvchi Shuhrat Matkarimning "Yilon", "Maqar", Xoliyor Safarovning "Nomus va hayot", "Qanotsiz qushlar", "Eng qayg'uli Quvonch" qissalari misolida)

Hulkar RAJABOVA,

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878365>

Annotatsiya: Shuhrat Matkarimning "Yilon" qissasida ham ruhiyat tasviri o'ziga xos uslubda asoslanadi. Adib qissada zamon va makonni asarning asosiy komponentlaridan biri sifatida undan qahramonlarning ichki dunyosini ochish bilan birga jamiyatni tasvirlash va umumiy ruhiyatni shakllantirishga intiladi. Yozuvchining "Yilon" qissasini varaqlaganda kitobxon zamon - qahramonlarning ruhiyatiga ta'sir qilishini his qilsa, makonda voqealarning chuqur falsafiy ma'nolari ta'sirida bo'ladi.

Kalit so'zlar: qissa, adabiyot, ruhiyat, tasvir, makon, zamon, shaxs.

Abstract: In Shuhrat Matkarim's story "Yilon" (Snake), the depiction of the psyche is also based on a unique style. In the story, the writer uses time and space as one of the main components of the work, while revealing the inner world of the characters, he seeks to depict society and form a general psyche. When browsing the writer's story "Yilon", the reader feels that time affects the psyche of the characters, and is influenced by the deep philosophical meanings of the events in space.

Keywords: story, literature, psyche, depiction, space, time, person.

Аннотация: В рассказе Шухрата Маткарима «Илон» (Змея) изображение психики также основано на уникальном стиле. В рассказе писатель использует время и пространство как один из основных компонентов произведения, раскрывая внутренний мир персонажей, он стремится изобразить общество и сформировать общую психику. Просматривая рассказ писателя «Илон», читатель чувствует, что время влияет на психику персонажей, и испытывает влияние глубоких философских смыслов событий в пространстве.

Ключевые слова: рассказ, литература, психика, изображение, пространство, время, человек.

Shuhrat Matkarimning "Yilon" qissasida zamonda kishilar ruhiyati tasviri beqaror va ishonchsiz davr ruhi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham qissada qahramonlarning ruhiy holati zamonning murakkabligi bilan chambarchas bog'liq. Qissa qahramoni Bahodir – o'z kelajagiga ishonmaydi, jamiyatda o'z o'rnini yo'qotishdan qo'rqadigan obraz. Yusufboy obrazi esa – haqiqatni tushungan, lekin unga qarshi kurashmaydigan, realistik inson tasvirida beriladi. Yana bir obraz Shavkat – hech narsa o'zgarmasligiga ishongan betaraf kuzatuvchi sifatida tasvirlangan. Qissada zamon ruhida odamlar o'zlariga ham, atrofga ham ishonmaydiki, go'yoki tizim odamlarning harakatini cheklaydi, ularning o'zini erkin his qilishiga yo'l

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

qo‘ymaydigan chegaradir. Shundan hamma nimadandir qo‘rqadi, ochiq gapira olmaydi.

Misol:

“Bahodir kechasi uzoq o‘ylab chiqdi. Ertaga hammasi o‘zgaradimi? Yo‘q. Hech narsa o‘zgarmaydi. Faqat vaqt o‘taveradi.”

Bu tasvir orqali Bahodirning beqaror davrda yashayotganini, kelajakka ishonchsizligini ko‘rish mumkin. Yozuvchi mahoratida qissadagi ramziy obrazlar shu jumladan, ilon orqali ifodalashini ko‘ramizki, bu hayvon ramzi qo‘rquv va ikkilanish muhitini yaratib beradi. Zero, yozuvchi aytganidek, ilon – yashirin xavf, kutilmagan fitnalar, jamiyatdagi noma‘lumlik ramzidir.

Yozuvchi aytmoqchiki, qahramonlar ilonning ta‘siridan chiqib keta olmaydi – bu ularning davrga bog‘lan. .

Misol:

“Bahodir ilonga tikildi. Uni yo‘q qilish kerak, lekin u halta ichida jim yotibdi. Balki u kutayotgandir?”

Bu tasvir jamiyatdagi qo‘rquv va noma‘lumlikni ko‘rsatsa, zamon ruhiyati qahramonlarning harakatida aks etib odamlar haqiqatni tushunadi, lekin unga qarshi chiqishmaydi. Yozuvchi aytganidek, qahramonlar tashqarida emas o‘z ichida kurashadi. Go‘yoki ular tashqarida ojiz va qo‘rqoq.

Misol:

"Yusufboy jilmayib dedi: *“O‘zingni aldama, jigar. Hammasi allaqachon hal bo‘lib bo‘lgan.”*

Bu so‘zlar davrning nafaolligini, hech narsa o‘zgarmasligini anglatadi. Yana bir gap, tabiat va makon tasviri ham qahramonlarning ichki dunyozi bilan paralleldir.

Tungi jimjitlik, chang bosgan joylar perpendikulyarida – qahramonlarning ichki siqilishlari ifodasi yechim emas tugundir. Qissada ifodalanganidek, dim va og‘ir havo – bu ruhiy bosim va ichki bosimning egizagidir.

Misol:

“Kechki shabada Bahodirning peshonasidagi terlarni quritdi. Lekin u yengil tortmadi. Osmonda bulutlar suzib yurardi – xuddi kelajagi kabi noaniq va g‘alati.”

Bu tasvir qahramonning ichki kechinmalarini atrof-muhit bilan bog‘lab, ilon joylashgan makon – ramziy ma‘no sifatida tasvirlanadi. Qissada ilon halta ichida ekan – go‘yoki xavf yoki muammo hozircha yashirin, lekin u borligini isbotlaydi.

Yozuvchi falsafasida ilon qayerga tashlansa ham, u o‘z ta‘sirini yo‘qotmaydi – ya‘ni tizimdan qochib qutulish oson emas.

Misol:

"Ilon maydonda yotardi. Lekin hech kim unga yaqinlashishga jur'at eta olmasdi. Xuddi hamma bir-biridan shubhalanayotgandek."

Yozuvchi bu tasvirda odamlarning jamiyat ichida qanday yashashini aks ettirgan. Yozuvchi ta'kidlaganidek, ichki va tashqi makon qarama-qarshidir. Zamonda tashqarida hamma narsa xotirjam ko'rinadi, lekin ichkarida odamlar qiynoqda. Yozuvchi o'qtirganidek qahramonlar real hayotda oddiy ishlarini bajaradi, lekin ularning ongida har doim boshqa fikrlar mujassam.

Misol:

"Shavkat Bahodirga qaradi. U xotirjam ko'rindi. Lekin uning barmoqlari titrayotganini faqat kuzatuvchi odam sezishi mumkin edi."

Yozuvchi makondagi osoyishtalik yolg'on, aslida ichki kurashlar davom etmoqda deydi, qissada. Zamon odamlarning ruhiyatiga ta'sir qilayaptimi, – demak ular o'zini erkin his qilishmaydi. Makonda esa bu holat qorong'ulik, chang bosgan joylar, osmonning noaniqligi orqali beriladi.

Yozuvchining qissanavis sifatida yana bir mohirligi uning tush motivi orqali zamon va makon ruhiyatining chuqurlashtirib ifodalay olishidadir. Qissadagi tush motivi zamon va makon ruhiyatini yanada ta'sirchan bo'lishiga qaratilgan.

Misol:

"Bahodir tushida ilonni ko'rdi. U qochmoqchi bo'ldi, lekin oyoqlari yerga yopishib qoldi. Osmon qora edi. Tuman qalinlashdi. Ilon esa asta-sekin yaqinlashib, uning qo'liga o'raldi..."

Bu sahna ham zamonning beqarorligi, makondagi og'ir muhit va qahramonning ichki qo'rquvlarini aks etgan.

Shunday qilib, "Yilon" qissasida zamon ruhiyati – beqarorlik va ishonchsizlik bilan uyg'un beriladi. Qahramonlar qatorida odamlar o'z kelajagiga ishonmay, jamiyatdagi tizim ham odamlarning ichki kechinmalarini o'zgartirib yuborgan. Bundan tashqari, yozuvchi makonda ruhiyatni yanada teranroq ochishda tabiat, ob-havo, jimjitlik, qorong'ulik – qahramonlarning ichki dunyosi bilan bog'ligini inobatga olgan. Ilon joylashgan makon – tizim va qo'rquvni ramziy ifodalagan.

Qissada zamon va makon bir-biri bilan bog'langan jihatlari ham mavjud bo'lib, jamiyatdagi muhit – makonda aks etgan. Makon qahramonlarning his-tuyg'ularini to'ldirgan.

Yozuvchi Shuhrat Matkarimning **"Maqar"** qissasida zamon va makon masalasida yuqoridagi qissalardan farqli o'laroq, bu tushunchalar asar qahramonlari ruhiyati va asar g'oyasini ochishda muhim rol o'ynashini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Yozuvchi ushbu masalalarni tasvirlash uslubi, qahramonning o'tgan va hozirgi hayoti orasidagi tafovutni, voqealarning sodir bo'layotgan joyi

orqali ifodalaydi. Qissada zamon va makon asosiy qahramon Maqar ruhiyati bilan uzviy bog'liq. O'tgan va hozirgi vaqt o'rtasidagi kontrast, tabiatning yemirilishi va insonlarning sovuqligi orqali asarning falsafiy mazmuni kengaytiriladi. Yana bir muhim gap shundaki, Shuhrat Matkarimning "Maqar" qissasi qahramonning ruhiy kechinmalarini chuqur ochib beruvchi asar sifatidagina emas balki birgina obraz orqali insoniyat boshiga kelayotgan ekologik ofatlar, yuqolib borayotgan qadriyatlarning qadrsizlanishi, jamiyatdagi misilsiz salbiy o'zgarishlar haqida ogoh etadi.

Masalan, ko'l – Maqar uchun tinchlik va xotirjamlik maskani bo'lib, u yerga har kuni odimlaydi. Biroq keyingi vaqtlarda u ko'lga borishdan to'xtab, jismonan zaiflashib borayotganini oldindan sezadi. Qishloqda esa Maqar bolalarga baliq tarqatsa-da, o'zini odamlar bilan emas, tabiat bag'rida erkinroq his qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Husen cholning uyi u uchun shunchaki yashash joyi, lekin Maqar chol u yerda o'zini to'liq baxtli hisoblamaydi. U ko'proq tashqarida, tabiat qo'ynida bo'lishni xohlaydi. O'tmish va hozirgi hayot o'rtasidagi tafovut orasida Maqar yoshligini, hozirgidanda sog'lom, faol bo'lganini o'ylaydi. Maqar qariyotgani sayin o'zining zaiflashayotganini o'ylay boshlaydi. U yoshlikda qariganida ham hozirgidek bo'lishiga ishongan, biroq hozir yura olmaydigan darajada zaif va ilojisiz. Shundan u jamiyatdagi o'zgarishlarni ham yoshligidek odamlarning bir-biriga mehribon va sadoqatli bo'lganini yodga oladi. Ammo bugungi kun odamlari orasida samimiyat yo'qolib borayotganidan afsus chekadi. O'limga yaqinlik hissidagi Maqar hayotining oxiriga yaqinlashayotganini, sezsa-da, o'limdan qo'rqmaydi. Maqar ruhiyati va hayot falsafasida o'z hayoti davomida oddiy va kamtarona yashaganini, har doim hayotga shukrona bilan qaraganini o'ylab yozuvchi ham hayoliy oynasida Maqar qatorida mulohaza qiladi. Yozuvchining "Maqar"i o'limi oldidagi falsafasi shunday edi:

"Uzun yashashimga ishonardim, lekin hayot menga boshqa reja tayyorlab qo'ygan ekan".

Yozuvchi ta'kidlaganidek Maqar og'ir kunlarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, hayotdan shikoyati yo'q.

Misol:

"Men hech narsaga nolimayman. Boriga shukr. Hayotim og'ir bo'ldi, lekin men yashashga arziydigan kunlarni ham ko'rdim".

Bu misoldan faqatgina Maqar obrazini emas, yozuvchining ham shaxsiy xislatlari yanada yorqinroq anglash lozim. Yozuvchi siyratida ham Maqar - sabr-qanoatl, hayotga shukr qilish falsafasi aks etgan. Yozuvchi ham insonni hayotda qilgan ishlari bilan emas, balki odamiyligi bilan baholash kerakligini tushtiradi.

Misol:

“Avvallari odamlar bir-biriga ko‘proq yordam berardi. O‘g‘lim otamni o‘zim boqaman, derdi. Endi esa bolalar ham, jamiyat ham boshqa. Hammaning o‘zi bilan ishi bor. Yolg‘izlik oldimdan chiqib turadi”.

Bu misolda ham jamiyatdagi insoniy munosabatlarning o‘zgarishi va yolg‘izlik hissi ifodalangan.

Yozuvchi Maqar bo‘lib tabiat va inson munosabatiga e‘tibor qaratadi. Maqarning qizi Zuxra(yozuvchining hayotdagi do‘sti)ning she‘rlarida ham tabiatga bo‘lgan hurmat va insonlarning tabiatni buzayotganiga nisbatan e‘tirozi bor. Yozuvchi ham Maqar ham o‘zini tabiatga qanchalik yaqin his qilmasin, hayotning qattiq sinovlari uni kundan-kun o‘zining zaifligi bilan yuzlashtirib brogan. O‘limga yaqinlashgan sari uning o‘ziga va hayotga bo‘lgan qarashi o‘zgaradi – u endi hamma narsani xotirjam qabul qiladi, ammo baribir hayotga mahkam yopishib qolishni xohlaydi.

Maqar o‘lim oldida o‘z ruhiy holatini shunday tasvirlaydi:

“Qachon ketishimni bilmayman, lekin sezib turibman – uzoq qolmadim. Lekin yuragim tinch. Menga o‘lim emas, balki meni esdan chiqarishlari alam qiladi”.

Bu misol qahramonning hayot va o‘lim haqidagi falsafiy qarashlarini Maqar va yozuvchi o‘rtasidagi falsafiy mushohadalar orqali ko‘rsatadi.

Avval aytilganidek. Maqar har kuni ko‘lga borib baliq tutadi, bolalarga tarqatardi. Lekin ko‘l ham, u bilan bog‘liq xotiralar ham uning ruhiy holatini aks ettiradi go‘yo:

“Ko‘l avvalgiday emas, borgan sari kichrayib, qurib boryapti. Baliq ham kamayib ketdi. Mening ahvolim ham xuddi shunday – yillar o‘tgan sari kuchim, bardoshim tugab boryapti”.

Yozuvchi bu misolda ko‘lning kichrayishi va Maqar kuchining pasayishini bir-biriga bog‘liq qilib tasvirlaydi.

“Bolalar shodon, lekin kattalar... kimningdir ko‘zi iljayib qaraydi, kimdir xuddi yo‘qdek, boshini buradi. Lekin men bolalarni yaxshi ko‘raman, ular samimiy. Katta bo‘lib, kattalar kabi beparvo bo‘lib qolishlarini istamayman”.

Bu misol orqali esa qishloq aholisi bilan Maqar o‘rtasidagi farq, odamlar orasidagi munosabatlarning o‘zgarishi ifodalangan.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, Maqarning ruhiy kechinmalari tabiiy muhit (makon) va zamonaviy hayot (zamon) bilan tutashgan. Maqar ham yozuvchi ham tabiat bilan uyg‘un yashagan oddiy inson, lekin jamiyat va hayotning o‘zgarishlari ularni tushkunlikka soldi. Ko‘llarning qurib borishi, odamlar orasidagi mehrning kamayishi, uning o‘z hayotidagi qudrat va kuchning yo‘qolishi – bularning hammasi yozuvchi ruhiyatidan Maqar ruhiyatiga ko‘chadi.

Maqar qahramoni asosan tabiiy muhit, xususan, ko'l va qishloq manzaralari fonida tasvirlanishida ham hikmat katta. Bu makonlar uning hayoti va ruhiy holatida ko'lda bemaqsad suzib yurgan baliqlarni kuzatayotganda, ularning hayoti bilan o'z hayotini taqqoslaganda ko'chadi. Qishloq hayoti, bolalar bilan aloqasi, odamlarga yordam berish istagi uning shaxsini ifodalasa, bolalar bilan bo'lishni yoqtirishi, ularga baliq tarqatib, bolalar orqali o'zining ichki bo'shliq va yolg'izlik hissini bartaraf etishi orqali o'qirman qalbini larzaga soladigan inson tasviri gavdalanadi.

Yozuvchi shuningdek, Maqar orqali jamiyatdagi o'zgarishlarga ham ko'nikish qiyinligini his qilishi odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati o'zgarganligini, avvalgidek samimiyat yo'qolganini qayg'u bilan gapiradi.

Maqar o'z hayoti davomida juda kam narsani orzu qilgan, oddiy hayot kechirgan, lekin qariyotganida o'zining haqiqiy ehtiyojlarini anglaydi.

U hayotining so'nggi pallalarida ham yashashga, hayotning zavqini his qilishga intilsa-da, o'limga shunchaki taslim bo'lmaydi.

Maqar kechirimli va kamtar inson edi. Uning bolalariga bo'lgan munosabati, hayot haqidagi falsafiy qarashlari, tabiat bilan uyg'unlikda yashashi uning ruhiyatida shakllandi. Maqar o'zining hayoti davomida kechirgan quvonch va og'riqlar orqali o'qirmanga insoniylik, saxovat, qadrdon yurt va tabiatga muhabbat haqida chuqur mulohaza qilish imkonini yaratdi.

Qissada vaqt tasviri ikki asosiy yo'nalishda qurilgan:

Biri o'tmish va xotiralar, ikkinchisi hozirgi zamon va qari Maqar edi. Maqarning o'tmishi – orzu va armonlar bilan to'la dunyo ifodasi bo'lib, uning o'tmishi xotiralar orqali yoritildi. U yoshlik yillarini eslab, o'sha davrdagi tabiat go'zalligini, insonlar o'rtasidagi mehr-muhabbatni va o'zining baquvvat yoshligini sog'indi:

"Bir vaqtlar odamlar bir-birini hurmat qilar edi. Bir tishlam non topsa, qo'shnisi bilan bo'lishar edi."

"Orol qanday to'lqinlanib yotgan, bag'rida qanday ajoyib baliqlar yashagan! Hozir esa faqat sho'r-garava."

Yozuvchi Maqar orqali o'tmish haqida gapirar ekan, bu zamonning odamlari yaxshiroq bo'lgan, tabiat esa go'zallik va mo'l-ko'llik bilan to'la ekanligidan afsus chekadi. Hozirgi zamon – ezilgan qariyaning dunyosi tavsilotida esa bugungi kunda Maqar hayotning qiyinchiliklari, insonlarning sovuqligi va tabiatning o'zgarib ketganidan afsus chekadi. Uning og'riqlari shunchalik kuchliki, bu ruhiy tushkunlik hayotning o'zi kabi og'ir tosh bo'lib tuyuladi:

"Doktordan qo'rqib yuribman. Aytadigan gapini yuragim sezib yuribdi. Kuning tukangan deydi, u."

"Qumlar ham kundan-kun qisqarib borayotir. Odamlar tabiatni hech ayamaydi."

Hozirgi zamon Maqar taqdirining yolg'izlik, tushkunlik va yo'qotishlar sahifasi bo'lib, unga tabiatning vayron bo'lishi va insonlarning ochko'zligini qayd etadi. Yozuvchi qissada zamon kontrasti – o'tgan va bugunning farqi tafsilotini ham beradiki, asarda o'tmish va hozirgi vaqt o'rtasidagi qarama-qarshilik doimiy ravishda ko'zga yaqqol tashlanadi. Maqar qanchalar yoshlik davrida jonli, umidbaxsh dunyo bo'lganini anglasa, hozirgi zamon shunchalar o'lim va yo'qotishlar bilan bog'liqligidan afsuslanadi.

Shunday qilib, voqealar quyidagi joylarda ro'y bergan:

- Katta tabiat – qum, ko'l va tabiatning o'zgarishida;
- Qissaning katta qismi ochiq tabiat fonida;
- Qumliklar, ko'l bo'ylari, ovqat topish uchun kurash ketayotgan joylarda;

Yuqorida ta'kidlanganidek Maqar ko'l bo'yida yashaydi va har kuni baliq tutish bilan shug'ullanadi. Bu joylar avval hayotbaxsh, go'zal va mo'l-ko'llik bilan to'la bo'lsa, bugun esa o'zgarib, yo'qolib bormoqda:

"Ko'lda baliq ham avvalgidiy emas. Mayda, oz."

"Qumlarga ham chang solib yotibmiz. Bir kun kelib shu qumlarga tiqilib o'lib ketishimizni xayolimizga ham keltirmaymiz."

Bu joylar Maqar uchun shunchaki manzara emas, balki uning hayotining bir qismi bo'lib, ular ham qariyotganday, yemirilib borayotganday tuyuladi.

Avval aytilganidek, Maqarning uyi ham qahramon ruhiyatini aks ettiruvchi makondir. Biroq bu joy uning hayotining so'nggi manziliga aylanmoqda:

"Kampir borma, deydi ko'lga. Lekin bolalarga tarqatganimdan qolganini sotsam besh-olti tanga bo'ladi-da."

Bu uy iliqlik yoki osoyishtalik ramzi emas, balki odamlar tomonidan unutilgan, beparvolik bilan to'la bo'shliqdir go'yo.

Orol dengizi – butun dunyo mamlakatlarining og'riqli nuqtasi, yozuvchining ham eng yuksak tashvishidir. Shundan yozuvchi qissada kemalar qabristoni -Orolni inson ochko'zligi va tabiat vayronchiligi tasvirida jonlantiradi. Orol dengizini qissada asosiy makonlardan biri sifatida qayd etadi. Maqar bu joyga hech qachon bormagan, lekin u haqida ko'p eshitgan va u orqali tabiatning qanday yo'q bo'lib borayotganini his qiladi:

"Men Orolni ko'rmaganman. Lekin eshitgan gaplarimdan bilaman-ki, uning qirg'og'ida xayol surib tursang, dengizdan mayin, salqin havolar keladi."

"Hozir esa sho'r-garava bosgan, shovullagan shamollar yuz, ming, o'n minglagan kilometrlarga ofatlar yog'dirib yotgan cheksiz maydon."

Shunday qilib barcha qissalarda zamon va makon qahramonlarning ruhiyati, jamiyatdagi o'zgarishlar va asarning umumiy g'oyasini ochib beruvchi asosiy unsur

sifatida qalamga olingan. Yuqoridagi barcha qissalarda zamon va makon orqali jamiyatdagi muammolar – ijtimoiy tengsizlik, qadriyatlarning o‘zgarishi, odamlararo munosabatlar va jamiyatdagi axloqiy inqirozlar muhim mavzu sifatida yoritilgan. Shuningdek, har bir qissada qahramonlarning ichki iztiroblari va hissiy kechinmalari asosiy o‘rinni egallagan. Qahramonlarning tashqi hayoti va ichki dunyosi o‘zaro bog‘langan.

“Nomus va hayot” va “Qanotsiz qushlar” qissalarida qishloq hayoti va shahar madaniyatining farqlari asosiy konfliktlardan biri sifatida ko‘tarilib, muhabbat moddiy manfaat, an‘analar va jamiyat bosimi ozaro to‘qnashadi.

"Yilon", "Maqar" qissalarida esa jamiyatdagi beqarorlik, qo‘rquv va insonning ichki kurashlari, tabiat, ekologik muammolar va yolg‘izlik mavzulari o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabova, Hulkar. "Qissada ekzistensial qahramon va uning jonzodlar bilan yashash motivi (Shuhrat Matkarimning "Maqar" qissasi misolida)." «ACTA NUUZ» 1.1.2. 1 (2025): 318-320.
2. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim "Yilon", "Maqar", Kholiyor Safarov "Honor and Life", "Wingless Birds", "The Saddest Joy")." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
3. Hulkar, Rajabova, and Xayitmamatova Charosxon. "Zamonaviy adabiyot o‘qituvchisi o‘qish san‘ati ustasi." *Научный информационный бюллетень* 6.2 (2025): 748-750.
4. Hulkar, Rajabova, and Otajonova Parizoda Azizjonovna. "MUQIMIY LIRIKASIDA OSHIQ OBRAZI." *Научный информационный бюллетень* 7.1 (2025): 28-31.
5. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
6. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
7. Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
8. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
9. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma‘rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.